


## 2020- yil yanvar - avgust oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Samarqand viloyatida jami 3692,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi.




### 2020-yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha bo`linadi.



***Maʼlumot uchun:*** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2020– yil yanvar–avgust oylarida mulkchilik shakillari bo'yicha qurilish ishlari



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2,9 mingtani tashkil etib, o'tgan 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,3 mintaga oshdi.

Qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda qurilish ishlari hajmining o'tgan yilga nisbatan **33,6%** ga (jami qurilishdagi ulushi **74,0 %**) oshganligi hisobidandir.




### **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

|                           | <b>Holatiga ko'ra:</b> |                        | <b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b> |
|---------------------------|------------------------|------------------------|------------------------------------|
|                           | <b>01.10.2019- yil</b> | <b>01.10.2020- yil</b> |                                    |
| <b>Samarqand viloyati</b> | <b>2712</b>            | <b>2982</b>            | <b>109,9</b>                       |
| Samarqand sh.             | 979                    | 1039                   | 106,1                              |
| Kattaqo'rg'on sh.         | 82                     | 104                    | 126,8                              |
| tumanlar:                 |                        |                        |                                    |
| Oqdaryo                   | 119                    | 138                    | 115,9                              |
| Bulung'ur                 | 54                     | 69                     | 127,8                              |
| Jomboy                    | 96                     | 113                    | 117,7                              |
| Ishtixon                  | 132                    | 146                    | 110,6                              |
| Kattaqo'rg'on             | 107                    | 117                    | 109,3                              |
| Qo'shrabot                | 65                     | 63                     | 96,9                               |
| Narpay                    | 71                     | 86                     | 121,1                              |
| Payariq                   | 203                    | 228                    | 112,3                              |
| Pastdarg'om               | 276                    | 306                    | 110,8                              |
| Paxtachi                  | 54                     | 62                     | 114,8                              |
| Samarqand                 | 110                    | 126                    | 114,5                              |
| Nurobod                   | 48                     | 40                     | 83,3                               |
| Urgut                     | 192                    | 211                    | 109,8                              |
| Toyloq                    | 124                    | 134                    | 108,1                              |



## Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (%da) 01.10.2020- yil holatiga



**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand sh. (34,8 %), Pastdarg'om (10,3 %) va Payariq (7,6 %) tumanlardir.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **429,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **8,9** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **10,5 %** punktga ko'paygan.




### **Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da**



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **37,9 %** yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **4,9 marta ko'p**), Kattaqo'rg'on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,5 %** ), Toyloq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,3 %** ), Pastdarg'om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,0%** ), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,9 %** ) va Oqdaryo (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,6 %** ) tumanlarga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-avgust
- 2019- yil yanvar-avgust

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **63,0 %** bajarilib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,6 %** punktga kamaygan.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etgan holda **2324,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,4 %** ni tashkil etib, **1023,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **81,6 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi % da, mlrd. so'm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **119,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **29,0** % ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3572,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **146,9** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,2** % va **96,8** % ni tashkil etgan.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2020- yil yanvar-avgust



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil yanvar-avgust

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-avgust

66,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **66,9 %** yoki **2471,4** mlrd. so'mni tashkil etgan.

15,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **382,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,5 %** ni tashkil etdi.

48,5%

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1198,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **48,5 %** ni tashkil etdi.

36,0%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **890,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,0 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-avgust oylarida**

|                                | Qurilish<br>ishlari<br>hajmi<br>(mlrd. so'm) | O'sish sur'ati,<br>% da | Umumiy hajmdan<br>yangi qurilish,<br>rekonstruksiya<br>(mlrd. so'm) |
|--------------------------------|--|-------------------------|---|
| <b>Samarqand viloyati</b>      | <b>3692,5</b>                                | <b>104,5</b>            | <b>2471,4</b>   |
| Samarqand sh.                  | 1293,1                                       | 108,7                   | 865,5   |
| Kattaqo'rg'on sh.<br>tumanlar: | 69,3   | 107,9                   | 46,4  |
| Oqdaryo                        | 296,9  | 103,5                   | 198,7   |
| Bulung'ur                      | 81,8   | 95,6                    | 54,7  |
| Jomboy                         | 179,4  | 102,2                   | 120,1   |
| Ishtixon                       | 181,7  | 101,3                   | 121,6   |
| Kattaqo'rg'on                  | 122,6  | 106,1                   | 82,1  |
| Qo'shrabot                     | 95,1   | 100,4                   | 63,7  |
| Narpay                         | 121,2  | 97,4                    | 81,1  |
| Payariq                        | 204,3  | 85,6                    | 136,7   |
| Pastdarg'om                    | 297,7  | 138,5                   | 199,3   |
| Paxtachi                       | 129,2  | 89,1                    | 86,5  |
| Samarqand                      | 136,2  | 82,7                    | 91,2  |
| Nurobod                        | 80,7   | 108,3                   | 54,0  |
| Urgut                          | 153,1  | 80,7                    | 102,5   |
| Toyloq                         | 250,2  | 137,7                   | 167,4   |

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-avgust

13,5




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

14,5



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

72,0



Bino va inshootlarni  
qurish

7,2



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

18,8



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

74,0



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,5 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **9,8 %** punktga ko'payib, **59,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,2 %** punktga kamayib, **34,3%** ni tashkil etdi.



2020- yil  
yanvar-avgust

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **35,4** % ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **26,5** % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **64,0** % (**14,3** % punktga ko'payish), hamda norasmiy sektorning ulushi **0,5** % (**37,1** % punktga kamayish)ni tashkil etdi.



2020- yil  
yanvar-avgust


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **98,1 %** ulush esa kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi.



2020- yil  
yanvar-avgust

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-avgust oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
1293,1

1

2

Oqdaryo  
296,9

Toyloq  
250,2

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Kattaqo'rg'on sh.  
69,3

1

2

Bulung'ur  
81,8

Nurobod  
80,7

3





## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Kontakt telefon: (66) 2304532*

**2020- yil  
yanvar-avgust**

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**